

SCIENCE
PROBLEMS.UZ

ISSN 2181-1342

Actual problems of social and humanitarian sciences
Актуальные проблемы социальных и гуманитарных наук

**Ijtimoiy-gumanitar
fanlarning dolzarb
muammolari**

Son 2. Jild 4.

2024

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2(4) - 2024

**АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО-
ГУМАНИТАРНЫХ НАУК**

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

ТОШКЕНТ-2024

БОШ МУҲАРРИР:

Исанова Феруза Тулқиновна

ТАҲРИР ҲАЙЪАТИ:

07.00.00-ТАРИХ ФАНЛАРИ:

Юлдашев Анвар Эргашевич – тарих фанлари доктори, сиёсий фанлар номзоди, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Мавланов Уктам Махмасабирович – тарих фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Хазраткулов Абдор – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети.

Турсунов Равшан Нормуратович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Холиқулов Ахмаджон Боймаҳамматович – тарих фанлари доктори, Ўзбекистон Миллий Университети;

Габриэльян Софья Ивановна – тарих фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Миллий Университети.

08.00.00-ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ:

Карлибаева Рая Хожабаевна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Насирходжаева Дилафруз Сабитхановна – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Остонокулов Азамат Абдукаримович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Тошкент молия институти;

Арабов Нурали Уралович – иқтисодиёт фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Худойқулов Садирдин Каримович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Азизов Шерзод Ўктамович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Божхона институти;

Ҳожаев Азизхон Саидалоҳонович – иқтисодиёт фанлари доктори, доцент, Фарғона политехника институти

Холов Актам Хатамович – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Шадиева Дилдора Хамидовна – иқтисодиёт фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент в.б, Тошкент молия институти;

Шакарров Қулмат Аширович – иқтисодиёт фанлари номзоди, доцент, Тошкент ахборот технологиялари университети

09.00.00-ФАЛСАФА ФАНЛАРИ:

Ҳакимов Назар Ҳакимович – фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Яхшиликков Жўрабой – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Ғайбуллаев Отабек Мухаммадиевич – фалсафа фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Саидова Камола Усканбаевна – фалсафа фанлари доктори, “Tashkent International University of Education” халқаро университети;

Ҳошимхонов Мўмин – фалсафа фанлари доктори, доцент, Жиззах педагогика институти;

Ўроқова Ойсулув Жамолiddиновна – фалсафа фанлари доктори, доцент, Андижон давлат тиббиёт институти, Ижтимоий-гуманитар фанлар кафедраси мудир;

Носирходжаева Гулнора Абдукаҳхаровна – фалсафа фанлари номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Турдиев Бехруз Собирович – фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), доцент, Бухоро давлат университети.

10.00.00-ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Ахмедов Ойбек Сапорбаевич – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Кўчимов Шухрат Норқизилович – филология фанлари доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳасанов Шавкат Аҳадович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат университети;

Бахронова Дилрабо Келдиёровна – филология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Мирсанов Ғайбулло Қулмуродович – филология фанлари доктори, профессор, Самарқанд давлат чет тиллар институти;

Салахутдинова Мушарраф Исамутдиновна – филология фанлари номзоди, доцент, Самарқанд давлат университети;

Кучкаров Раҳман Урманович – филология фанлари номзоди, доцент в/б, Тошкент давлат юридик университети;

Юнусов Мансур Абдуллаевич – филология фанлари номзоди, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Саидов Улугбек Арипович – филология фанлари номзоди, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси.

12.00.00-ЮРИДИК ФАНЛАР:

Ахмедшаева Мавлюда Ахатовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Мухитдинова Фирюза Абдурашидовна – юридик фанлар доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Эсанова Замира Нормуратовна – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикасида хизмат кўрсатган юрист, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳамроқулов Баҳодир Мамашарифович – юридик фанлар доктори, профессор в.б., Жаҳон иқтисодиёти ва дипломатия университети;

Зулфиқоров Шерзод Хуррамович – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Жамоат хавфсизлиги университети;

Хайитов Хушвақт Сапарбаевич – юридик фанлар доктори, профессор, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Асадов Шавкат Ғайбуллаевич – юридик фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон Республикаси Президенти ҳузуридаги Давлат бошқаруви академияси;

Утемуратов Махмут Ажимуратович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Сайдуллаев Шахзод Алиханович – юридик фанлар номзоди, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ҳакимов Комил Бахтиярович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Юсупов Сардорбек Баходирович – юридик фанлар доктори, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Амиров Зафар Актамович – юридик фанлар бўйича фалсафа доктори (PhD), Ўзбекистон Республикаси Судьялар олий кенгаши ҳузуридаги Судьялар олий мактаби;

Жўраев Шерзод Юлдашевич – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Бабаджанов Атабек Давронбекович – юридик фанлар номзоди, доцент, Тошкент давлат юридик университети;

Раҳматов Элёр Жумабоевич – юридик фанлар номзоди, Тошкент давлат юридик университети;

13.00.00-ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ:

Хашимова Дильдархон Уринбоевна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат юридик университети;

Ибрагимова Гулнора Хавазматовна – педагогика фанлари доктори, профессор, Тошкент давлат иқтисодиёт университети;

Закирова Феруза Махмудовна – педагогика фанлари доктори, Тошкент ахборот технологиялари университети ҳузуридаги педагогик кадрларни қайта тайёрлаш ва уларнинг малакасини ошириш тармоқ маркази;

Қаюмова Насиба Ашуровна – педагогика фанлари доктори, профессор, Қарши давлат университети;

Тайланова Шохидат Зайниевна – педагогика фанлари доктори, доцент;

Жуманиёзова Муҳайё Тожиевна – педагогика фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Ибрахимов Санжар Урунбаевич – педагогика фанлари доктори, Иқтисодиёт ва педагогика университети;

Жавлиева Шахноза Баходировна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети;

Бобомуротова Латофат Элмуродовна – педагогика фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD), Самарқанд давлат университети.

19.00.00-ПСИХОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Каримова Василя Маманосировна – психология фанлари доктори, профессор, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Ҳайитов Ойбек Эшбоевич – Жисмоний тарбия ва спорт бўйича мутахассисларни қайта тайёрлаш ва малакасини ошириш институти, психология фанлари доктори, профессор

Умарова Навбахор Шокировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети, Амалий психология кафедраси мудири;

Атабаева Наргис Батировна – психология фанлари доктори, доцент, Низомий номидаги Тошкент давлат педагогика университети;

Шамшетова Анжим Караматдиновна – психология фанлари доктори, доцент, Ўзбекистон давлат жаҳон тиллари университети;

Қодиров Обид Сафарович – психология фанлари доктори (PhD), Самарканд вилоят ИИБ Тиббиёт бўлими психологик хизмат бошлиғи.

Содиқова Шоҳида Мархабобевна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон халқаро ислом академияси.

22.00.00-СОЦИОЛОГИЯ ФАНЛАРИ:

Латипова Нодира Мухтаржановна – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири;

Сейтов Азамат Пўлатович – социология фанлари доктори, профессор, Ўзбекистон миллий университети;

23.00.00-СИЁСИЙ ФАНЛАР

Назаров Насриддин Атақулович – сиёсий фанлар доктори, фалсафа фанлари доктори, профессор, Тошкент архитектура қурилиш институти;

Бўтаев Усмонжон Хайруллаевич – сиёсий фанлар доктори, доцент, Ўзбекистон миллий университети кафедра мудири.

ОАК Рўйхати

Мазкур журнал Вазирлар Маҳкамаси ҳузуридаги Олий аттестация комиссияси Раёсатининг 2022 йил 30 ноябрдаги 327/5-сон қарори билан тарих, иқтисодиёт, фалсафа, филология, юридик ва педагогика фанлари бўйича илмий даражалар бўйича диссертациялар асосий натижаларини чоп этиш тавсия этилган илмий нашрлар рўйхатига киритилган.

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари” электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил: scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).

МУНДАРИЖА**07.00.00 – ТАРИХ ФАНЛАРИ***Файзуллаева Мавлюда Хамзаевна*ЎЗБЕК ВА ТОЖИК АНЪАНАВИЙ ТАОМЛАРИДА ЭТНОМАДАНИЙ АЛОҚАЛАРНИНГ АКС
ЭТИШИ (СУРХОН ВОҲАСИ МИСОЛИДА) 10-15*Umarov Sardor Yakubovich*QAYTA BIRLASHGAN GERMANIYADA MEHNAT BOZORINI ISLOH QILISH, AHOLI BANDLIGI,
DEMOGRAFIK O'ZGARISHLAR 16-20**08.00.00 – ИҚТИСОДИЁТ ФАНЛАРИ***Shadiyeva Gulnora Mardiyevna*O'ZBEKISTONDA EKSPORTNING OSHISHINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIR ETISH
YO'LLARI..... 21-29*Халилдинов Азизбек Абдуқаххорович*КИЧИК БИЗНЕС ВА ХУСУСИЙ ТАДБИРКОРЛИК СУБЪЕКТЛАРИ ФАОЛИЯТИНИ
БОШҚАРИШГА ОИД НАЗАРИЙ ҚАРАШЛАР 30-34*Мавлянов Мажид, Урдушев Хамракул*

КЛАСТЕР ЁНДАШУВИ: ЧОРВАЧИЛИК КЛАСТЕРЛАРИНИНГ АФЗАЛЛИКЛАРИ 35-45

*Асроров Азизбек Исомиддин угли*ЭКОНОМИЧЕСКАЯ ПРИРОДА РИСКОВ, ВОЗНИКАЮЩИХ В ДЕЯТЕЛЬНОСТИ
КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ 46-52*Хайдарова Дурдона Шухратжон қизи, Ачилбойева Севинч О'ткир қизи*

МАНАЛЛИЙ BUDJET DAROMADLARI HISOBI TASHKIL ETISHNING NAZARIY JIHATLARI. 53-60

*Камалов Акмал Сайдакбарович*ХАЛҚАРО ТРАНСПОРТ ЛОЙИҲАЛАРИНИ АМАЛГА ОШИРИЛИШИ ЭҲТИМОЛЛИГИНИНГ
ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ИҚТИСОДИЙ ХАВФСИЗЛИГИГА ТАЪСИРИНИ БАҲОЛАШ
УСЛУБИЯТИ ИШЛАБ ЧИҚИШ 61-68*Namazov Gafur Shokulovich*

IQTISODIYOTDA GIBRID MODELLARNI QO'LLASH 69-75

09.00.00 – ФАЛСАФА ФАНЛАРИ*Rasulov Azizkhon Mukhamadqodirovich*

YANGI O'ZBEKISTONDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARINING TIZIMLI O'ZGARISHI 76-81

Kadirova Ziyoda Rahimdjanovna

ISLOM FALSAFASIDA ILM TUSHUNCHASINING MOHIYATI 82-86

Turdiyev Bexruz Sobirovich

JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI 87-92

Alimatova Nargis Abduxalilovna

KONSTITUTSIYADA HALOL RAQOBAT KAFOLATI 93-98

Abdullayev Ibodulla Abdullayevich, Mustafoyeva Feruza Xurshid qizi

MA'NAVIYAT – YANGI O'ZBEKISTON TARAQQIYOTINING MUHIM POYDEVORIDIR..... 99-103

<i>Кувандиков Шокир Облокулович</i> МАҲМУДХҲҲЖА БЕҲБУДИЙ МИЛЛИЙ-МАЪНАВИЙ ҚАРАШЛАРИНИНГ ИЖТИМОИЙ ФАЛСАФИЙ МАНБАЛАРИ	104-111
<i>Yusupaliyev Orzimurod Odilovich</i> YOSHLAR MAFKURAVIY ONGI TRANSFORMATSIYALASHUVINING BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI: MUAMMO VA YECHIMLAR	112-119
<i>Eshonqulov Laziz Norqobul o'g'li</i> BADIIY MUHITDA TANQIDIYLIK VA SATIRANING TABIIY KOMMUNIKATSIYASI	120-125
10.00.00 - ФИЛОЛОГИЯ ФАНЛАРИ	
<i>Saitova Nilufar Djumaydillayevna</i> YOSH O'ZBEK SHOIRLARI: VOQELIKNI IDROK ETISH VA UNI BADIIY IFODALASH TENDENSIYALARI	126-130
<i>Nurmanov Furqat Hayitqulovich</i> O'G'UZ" ETNONIMI VA O'G'UZLAR	131-137
<i>Qudratova Sitora Olimovna</i> AQSH HIKOYACHILIGI TARIXI VA SPETSIFIKASINING BADIIY IFODASI HAMDA JANR IJODKORLARI.....	138-148
<i>Fayziyeva Aziza Anvarovna, Safarova Nigora Axatovna</i> METAFORALARNING O'ZBEKCHA TARJIMASIGA KOGNITIV YONDASHUV	149-153
<i>Qodirova Madinabonu Murodjon qizi</i> LINGVISTIK TA'MINOT VOSITALARI: TUZILISHI VA TARKIBI	154-159
<i>Аллабердиева Регина, Мадалов Навруз</i> ТАКСОНОМИЯ ГЕНДЕРНО-МАРКИРОВАННЫХ ПАРЕМИЙ - РЕГУЛЯТИВОВ АНГЛИЙСКОГО И РУССКОГО ЯЗЫКОВ	160-165
<i>Azimova Aziza Alisher qizi</i> INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA KONCHILIK LEKSIK BIRLIKLARINING LEKSIK-SEMANTIK XUSUSUYATLARI	166-172
<i>Shoymardonov Ilhom Alixonovich</i> BAHOR, YOZ, KUZ MAVSUMLARI BILAN BOG'LIQ BOLALAR QO'SHIQLARI	173-178
<i>Raxmatova Dilafruz Nusratilloevna</i> SAMARQAND JADIDCHILIK MAKTABI VAKILLARI ASARLARINING TIL XUSUSIYATI....	179-184
<i>Mirzayev Jasur, Madalov Navruz</i> THE DIALOGIC NATURE OF PERSONIFICATION IN THE POETICS OF WILLIAM BLAKE.....	185-190
<i>Yuan Xiaowei</i> ON THE TITLE AND LEXICAL FEATURES OF THE WINTER OLYMPICS NEWS REPORT IN CHINA DAILY	191-197
12.00.00 - ЮРИДИК ФАНЛАР	
<i>Ражабов Нариман Шарифбаевич</i> НЕКОТОРЫЕ ВОПРОСЫ ПРАВОВОГО РЕГУЛИРОВАНИЯ ДОБРОВОЛЬНОЙ ЭКОЛОГИЧЕСКОЙ СЕРТИФИКАЦИИ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	198-206
<i>Yakubova Iroda Bahramovna</i> MULKIY HUQUQLARNI JAMOAVIY ASOSDA BOSHQARUVCHI TASHKILOTLAR VA MUALLIFLIK	

HUQUQI OBYEKTLARIDAN FOYDALANUVCHI SHAXSLAR O'RTASIDAGI SHARTNOMALAR TASNIFI.....	207-212
<i>Inoyatov Behruzjon Umidjon o'g'li</i> TOVAR BELGILARINING HUQUQIY JIHATDAN MUHOFAZA QILISHNI TARTIBGA SOLUVCHI QONUNCHILIKNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI.....	213-220
<i>Raimova Shohsanam Fayratjonovna</i> РЕЦИДИВ ЖИНОЯТЛАР ВА УЛАРНИНГ ХУҚУҚИЙ АҲАМИЯТИ.....	221-227
<i>Mukimov Bobur</i> CURRENT ISSUES OF IMPROVING THE PROTECTION OF INTELLECTUAL PROPERTY AT THE INTERNATIONAL LEVEL.....	228-234
<i>Нодирахон Абдурахманова</i> ВЛИЯНИЕ ТЕХНОЛОГИИ БЛОКЧЕЙН, СМАРТ-КОНТРАКТОВ И КРИПТОВАЛЮТ НА РАЗВИТИЕ ПРАВА.....	235-239
<i>Акмалхонов Боситхон Азизхон ўғли</i> ЗАЩИТА ПРАВА ЧАСТНОЙ СОБСТВЕННОСТИ В ПРАКТИКЕ ЕВРОПЕЙСКОГО СУДА ПО ПРАВАМ ЧЕЛОВЕКА.....	240-246
<i>Turakulova Nazira</i> MUALLIFLIK HUQUQIDA MULKIY HUQUQLARNI JAMOVIIY BOSHQARISH.....	247-260
<i>Якубов Бекзод Эркинбаевич</i> КЕЧИКТИРИБ БЎЛМАЙДИГАН ҲОЛЛАРДА ТЕЗКОР – ҚИДИРУВ ТАДБИРЛАРИНИ ЎТКАЗИШ ТАРТИБИ ВА УНИНГ ХУҚУҚИЙ АСОСЛАРИ.....	261-265
13.00.00 – ПЕДАГОГИКА ФАНЛАРИ	
<i>Мамажонов Хошимжон Абдумаликович</i> ФИЗИКА ФАНИНИ ИЈОДИЙ О'ЗЛАСHTIRISH YO'LLARI (АКАДЕМИК ЛИТСЕYLAR MISOLIDA).....	266-271
<i>Tkacheva Anastasiya Aleksandrovna</i> O'ZBEKISTON OLIY O'QUV YURLARIDA ISPAN TILI BO'YICHA IJTIMOIIY-MADANIY KOMPETENTLIKNI O'QITISH STRATEGIYASINI ISHLAB CHIQUISHTI.....	272-281
<i>Haqberdiyev Baxtiyor Rustamovich</i> TASVIRIIY SAN'AT VA MUHANDISLIK GRAFIKASI FANLARINI BOSHQA FANLAR BILAN INTEGRATSIYASI.....	282-287
<i>Jumayev Xushboq Soatmumin o'g'li</i> KICHIK MAKTAB YOSHIDAGI O'QUVCHILAR XOTIRASINI RIVOJLANTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI.....	288-291
<i>Omonqulov Ulug'bek Maxsiddin o'g'li</i> IQTIDORLI O'QUVCHILAR BILAN ISHLASH METODIKASI.....	292-296
<i>Jumaboev Nabi Pardaboevich</i> THE NEED TO USE AESTHETIC VIEWS OF EASTERN THINKERS IN THE EDUCATIONAL SYSTEM.....	297-304
<i>Kayumov Erkin Kazakbayevich</i> TASVIRIIY SAN'ATNING O'QUVCHILAR IDROKI VA IJODKORLIGINI SHAKLLANTIRISHDAGI ROLI.....	305-310

Yusupova Feruza Hajiboyevna, Gaipova Nilufar Jasurbekovna

MAKTABGACHA YOSHDAGI BOLALARNING EKOLOGIK TA'LIM BERISHDA GRAFIK

ORGANAYZERLARNING ROLI 311-317

Karshiboyeva Dilafruz Boxodirovna

SOMONIYLAR DAVRI SAN'ATI VA UNING JAHON TARIXIDAGI ROLI..... 318-322

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Buxoro davlat universiteti dotsenti

JAMIYAT IDEOSFERASINING IJTIMOY-FALSAFIY TAHLILI

Annotatsiya: Jamiyat ideosferasining yangilanishi murakkab va serqirra jarayon bo'lib, u siyosat, iqtisod, ta'lim-tarbiya, madaniyat, ijtimoiy sohalaridagi o'zgarishlar bilan aloqadordir. Bu jarayon jamiyatning barcha a'zolari, hokimiyat organlari, ta'lim va madaniyat muassasalari, boshqa tuzilmalarning faol qo'llab-quvvatlashi va ishtirokini talab etadi. Mazkur maqolada jamiyat ideosferasining falsafiy mohiyati tahlil etilib, jamiyat ideosferasini tashkil etuvchi asosiy elementlar, uning yangilanishiga ta'sir qiluvchi omil va sabablar falsafiy kontekstdan kelib chiqib yoritilgan.

Kalit so'zlar: ideosfera, liberalizm, dunyoqarash, qadriyat, tafakkur, ilm-fan, fuqarolik jamiyati, texnologik innovatsiya

Turdiyev Bexruz Sobirovich
Associate professor of Bukhara State University

SOCIO-PHILOSOPHICAL ANALYSIS OF SOCIETY'S IDEOSPHERE

Abstract. Renewing the ideosphere of society is a complex and multifaceted process associated with changes in politics, economics, education, culture, and the social sphere. This process requires the active support and participation of all members of society, government bodies, educational and cultural institutions and other structures. This article, based on the philosophical context, analyzes the philosophical essence of the ideosphere of society, outlines the main elements that make up the ideosphere of society, the factors and reasons influencing its renewal.

Key words: ideosphere, liberalism, worldview, value, thinking, science, civil society, technological innovation

Турдиев Бехруз Собирович
Доцент Бухарского государственного университета

СОЦИАЛЬНО-ФИЛОСОФСКИЙ АНАЛИЗ ИДЕОСФЕРЫ ОБЩЕСТВА

Аннотация: Обновление идеосферы общества - сложный и многоплановый процесс, связанный с изменениями в политике, экономике, образовании, культуре, социальной сфере. Этот процесс требует активной поддержки и участия всех членов общества, органов власти, учреждений образования и культуры и других структур. В данной статье исходя из философского контекста анализируется философская сущность идеосферы общества, излагаются основные элементы, составляющие идеосферу общества, факторы и причины, влияющие на ее обновление.

Ключевые слова: идеосфера, либерализм, мировоззрение, ценности, мышление, наука, гражданское общество, технологические инновации.

DOI: <https://doi.org/10.47390/SPR1342V4I2Y2024N12>

Kirish. Ideosfera jamiyatda mavjud bo'lgan ijtimoiy norma va maqsadlarni o'zida ifodalab, jamiyatdagi muhim bo'lgan turli qarash, g'oya va mafkuralar tizimini shakllantiradi.

Jamiyat ideosferasi ijtimoiy hayotda mavjud bo'lgan va uning yangilanishiga ta'sir qiluvchi g'oyaviy, madaniy va ma'naviy munosabatlar, davlat strategiyasi, konsepsiya va qadriyatlarini qamrab oladi. Jamiyat ideosferasini yangilanishida milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimi, fuqarolar dunyoqarashi, jamiyat ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy maqsadini belgilovchi turli mafkuralar ta'sir etadi. Jumladan, liberalizm, konservatizm, sotsializm kabi mafkuralarda davlatning taraqqiyot yo'li, ijtimoiy-iqtisodiy strategiyasi va inson huquqlari to'g'risidagi konsepsiyalarni mujassam etgan.

Adabiyotlar tahlili va metodologiya. Ideosferaning demokratik jamiyat rivoji va o'zgarishlardagi roli masalasi tadqiqotchilar G.P.Xorinaning "Madaniyat tizimida mafkura", A.B.Loginovning "Mafkura ijtimoiy ontologiya muammosi sifatida", A.V.Jukoskayaning "Mafkura muammosi: ijtimoiy va falsafiy tahlil", E.V.Smirnovaning "Ijtimoiy-falsafiy fikrda mafkura tushunchasi", E.V.Lityaginning "Mafkura zamonaviy jamiyat hayotining zaruriy omili sifatida", A.M.Osipovaning "Ijtimoiy tajriba kontekstida mafkura — falsafiy tahlil", E.V.Lityaginning "Mafkura zamonaviy jamiyat hayotining zaruriy omili sifatida" mavzusidagi dissertatsion ilmiy tadqiqot ishlarida o'rganilgan.

Mazkur maqolani yozishda analiz va sintez, retrospektiv, qiyosiy tahlil, umumlashtirish, dialektik va sinergetik kabi ilmiy bilish usullaridan foydalanilgan.

Muhokama. Jamiyat ideosferasi ijtimoiy hayotning diniy, falsafiy, siyosiy, axloqiy va madaniy munosabat va sohalarini qamrab olar ekan, u tarixiy, ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy va madaniy omillar ta'sirida shakllanib boradi. Jamiyat ideosferasi insonlarda yangicha dunyoqarashi va tafakkurini shakllantirishda muhim rol o'ynab, qadriyatlar va xatti-harakatlar normalarini belgilaydi. Shuningdek, ijtimoiy moslashish va integratsiya jarayonlariga ta'sir qiladi. U ma'lum bir jamiyatda qanday g'oya va qadriyatlar hukmron bo'lishiga qarab, ijtimoiy hayotga ham ijobiy, ham salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin. Agar turli guruh va shaxslar o'rtasida muxolif qarashlarning mavjud bo'lishi jamiyatda ziddiyat va keskinlikni keltirib chiqarishi mumkin. Shu bilan birga, ideosfera ijodkorlik, innovatsiya va prospektiv o'zgarishlar manbai ham bo'lishi mumkin. Jamiyat ideosferasining o'zgarishi dinamik jarayon sifatida turli omillar, ilmiy kashfiyotlar, texnologik taraqqiyot, ijtimoiy harakat va globallashtirish ta'sirida o'zgarib boradi. Ideosfera o'zgarishi jarayonida ba'zi eski g'oya va qarashlar rad etilib, yangi konsepsiya va strategiyalarning implementatsiya qilinishiga zamin yaratadi.

Falsafiy jihatdan jamiyat ideosferasini tahlil qilish dolzarb ahamiyat kasb etib, u o'z mazmuniga ko'ra quyidagi elementlardan tashkil topgan:

birinchidan, qadriyat va normalar. Jamiyat ideosferasining falsafiy asosini shakllantirishda asrlar davomida shakllangan va qabul qilingan milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimi muhim rol o'ynaydi. Jamiyatda qadriyat va normalar erkinlik, tenglik, adolat, taraqqiyot, farovonlik, an'analarga hurmat va madaniy xilma-xillik kabi umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etib, jamiyat ideosferasini milliy g'oya asosida shakllanishiga xizmat qiladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'birlari bilan aytganda: "Biz qadimiy va boy tariximizni, ayniqsa, g'oyat og'ir sharoitda ilm-ma'rifat, inson erkinligi, xalq ozodligi, Vatanga, milliy qadriyatlarga mehr va sadoqat g'oyalarini dadil ko'tarib chiqqan jadid bobolarimiz faoliyatini yanada chuqur o'rganishimiz lozim. Ularning ulug' maqsadlar yo'lidagi mardona kurashi va fidoyiligi Yangi O'zbekistonni qurishda barchamiz, avvalo, yoshlarimiz uchun chinakam ibrat maktabi bo'lib xizmat qilishi zarur" [1].

ikkinchidan, dunyoqarash. Ideosferaning ushbu elementi diniy, falsafiy, madaniy yoki dunyoni idrok etishning boshqa usul va turlaridan tashkil topgan. Shu nuqtai nazardan, Yangi O'zbekiston taraqqiyotida mamlakatimiz fuqarolar ongida yangicha dunyoqarashni shakllantirish dolzarb ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun ham prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning "Xalqimizning ongi, dunyoqarashi o'zgargani, uning qalbida o'ziga, ertangi kunga ishonch paydo bo'lgani – bu bizning eng katta yutug'imiz" [2] degan fikrlari bejizga emas. Zero, o'z ideosferasini o'zgartira olgan xalq, hech shubhasiz, ijtimoiy hayot va muhitni ham o'zgartira oladi, o'zining strategik maqsadlarini amalga oshirish yo'lidan dadil boradi.

uchinchidan, mafkura. Jamiyat ideosferasining falsafiy elementlaridan ijtimoiy, iqtisodiy va siyosiy jarayonlarni tavsiflovchi va ularni mohiyatini tushuntiruvchi mafkura va g'oyalar muhim ahamiyatga ega. Jahonda sodir bo'layotgan globallashuv jamiyat ideosferasiga o'z ta'sirini o'tkazib, mamlakat va madaniyatlar o'rtasida inson, axborot va madaniyatlarning erkin harakatlanishi turli g'oya va qadriyatlar almashinuviga sabab bo'lmoqda. Global jarayonlar va xalqaro tashkilotlar mafkuraviy va madaniy qadriyatlarga ta'sir ko'rsatib, ularning moslashishi, birlashishi yoki ziddiyatini rag'batlantirishiga xizmat qilmoqda.

to'rtinchidan, fan va ta'lim. Jamiyat ideosferasining falsafiy mohiyati ta'lim va tarbiya bilan dialektik aloqador bog'langan. Ta'lim odamlarda bilim, qadriyat va ko'nikmalar tizimini yaratadi, shuningdek, dunyoqarash va tanqidiy fikrlashni rivojlantirishga yordam beradi. Ilmiy g'oyalar empirik ma'lumotlarga va mantiqiy fikrlashga asoslanib, dunyoni bilish va tushunish ko'lamini yuksaltirishga yordam beradi. Shuning uchun mamlakatimizda jamiyat ideosferasining yangilanishida jamiyat ongi va dunyoqarashini shakllantiruvchi ta'lim va tarbiya sohasini isloh qilish va bunda jahondagi rivojlangan mamlakatlarning ilg'or tajribalaridan foydalanish ustuvor vazifalardan biriga aylanmoqda. Bu borada yurtimizda amalga oshirilayotgan islohotlar xususida prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev quyidagilarni e'tirof etadi: "So'nggi yillarda birgalikdagi sa'y-harakatlarimiz tufayli mamlakatimizda ko'plab yangi bog'chalar, maktab va oliygohlar barpo etilmoqda. Ta'lim-tarbiya va ilm-fan muassasalarining moddiy-texnik bazasi, kadrlar salohiyati mustahkamlanmoqda. Darslik va o'quv qo'llanmalarining yangi avlodi yaratilmoqda" [3].

beshinchidan, axloq. Inson xulq-atvori va o'zaro muloqot qoidalarini belgilab beruvchi axloq asoslari ham jamiyat ideosferasining falsafiy elementlaridan biri hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev jamiyat ideosferasining falsafiy asosida axloqning roli haqida to'xtalib, "Davlatning vazifasi insonlarni baxtli-saodatli qilishdir. Bu maqsadga esa ilm va yaxshi axloq yordamida erishiladi" [4], degan so'zlarini o'zimiz uchun dastur deb bilamiz deb alohida qayd etadi.

Umuman olganda, jamiyat ideosferasi insoniyat hayotining madaniy va ijtimoiy muhim jihatlarni qamrab olar ekan, u insonlarning xulq-atvori va o'zaro munosabatlariga, shuningdek, fuqarolik jamiyati institutlari va siyosiy tizimlarning shakllanishiga ta'sir ko'rsatadi. Jamiyat ideosferasini falsafiy anglash jamiyat rivoji, ziddiyatlari va yutuqlarini yaxshiroq tushunishga yordam beradi.

Mamlakatda mavjud jamoat birlashmalari va ijtimoiy harakatlar jamiyat ideosferasining shakllanishiga ham sezilarli ta'sir ko'rsatadi. Ular ijtimoiy va siyosiy masalalarga javob topish maqsadida paydo bo'lishi va muayyan konsepsiya, strategiya va qadriyatlarni ifodalashi mumkin. Bugungi kunda inson huquq va erkinliklarini hurmat qilish, erkin va adolatli saylovlar o'tkazish, siyosiy partiya va tashkilotlarning plyuralistik tizimi, hokimiyatlarning bo'linishi, so'z

va matbuot erkinligi va barcha davlat institutlarining qonuniy ravishda tashkil etish kabi prinsiplar jamiyat mafkurasi va qadriyatlarida yangi o'zgarishlarga olib kelishi va uning rivojlanishiga ta'sir qilishi mumkin.

Jamiyat ideosferasini tushunish murakkab hodisa hisoblanib, u ijtimoiy falsafaning muhokama va munozaralar mavzusiga aylangan. Jamiyat ideosferasi statik va yopiq tushuncha bo'lmasdan, balki turli omillar va insonlararo muloqotning ta'siri ostida doimiy ravishda o'zgarib, rivojlanib boradi. Ideosferani tushunish ijtimoiy jarayonlarni yaxshiroq tushunish va tahlil qilishga yordam beradi, tanqidiy fikrlash va jamiyatda samarali muloqotni rag'batlantiradi.

Jamiyatning ideosferasiga ko'plab omillar ta'sir qiladi, jumladan:

birinchidan, texnologik innovatsiyalar. Hozirgi kunda texnologik innovatsiyalar dunyoning ko'pgina mamlakatlarida jamiyat ideosferasini o'zgartirishda muhim rol o'ynab kelmoqda. Jumladan, texnologik jarayonlarning jadallashuvi va zamonaviy dunyoni raqamlashtirish axborot ko'lamining tez tarqalishiga, ta'lim va tarbiya sifatining yuksalishiga olib kelmoqda. Bu jamiyatdagi mavjud g'oya va qadriyatlarni shakllantirish va ularni tarqatish usullarini o'zgartirishga ta'sir qiladi.

Jamiyat ideosferasining yuksalishiga texnologik innovatsiyalar ulkan ta'sir etgan davlatlar qatoriga AQSh, Finlyandiya, Yaponiya, Germaniya, Xitoy, Janubiy Koreya, Shvetsiya, Shveysariyani misol qilib ko'rsatishimiz mumkin. Bu davlatlarda texnologik innovatsiyalar yangi innovatsion g'oyalarning rivojlanishiga, madaniy o'zgarish va milliy va umuminsoniy qadriyatlarning uyg'unlashuviga erishilgan. Jumladan, bugun AQSH dunyoning yetakchi innovatsion markazlaridan biri hisoblanib, bu yerda internet, ijtimoiy tarmoqlar, sun'iy intellekt texnologiyalari jamiyat ideosferasini yangilanishiga bevosita hissa qo'shgan.

ikkinchidan, ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar. Demografik o'zgarishlar, migratsiya jarayonlarning kuchayishi, madaniyatlararo integratsiya va jamiyatning ijtimoiy tizimidagi islohotlar jamiyat ideosferasining yangilanishiga olib kelishi mumkin. Bugungi kunda jahon hamjamiyatida sodir bo'layotgan ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar dunyoning ko'pgina mamlakatlarida jamiyat ideosferasini o'zgartirishda katta ta'sir o'tkazmoqda. Ba'zi diqqatga sazovor misollar sifatida AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Italiya, Yaponiya, Xitoy, Hindiston kabi davlatlarni ko'rsatishimiz mumkin. Bu mamlakatlarning har biri jamiyat ideosferasiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan o'ziga xos ijtimoiy-madaniy o'zgarishlarga zamin yaratgan.

Bugungi kunda AQSh o'zining madaniy xilma-xilligi, hokimiyatning taqsimlanishi va demokratik prinsiplarning ustuvorligi tufayli ijtimoiy-madaniy o'zgarishlar markazlaridan biriga aylangan. Buyuk Britaniya global jamiyat ideosferasiga ta'sir ko'rsatgan G'arb madaniyati va ideallarini shakllantirishda asosiy rol o'ynaganligi bilan diqqatga sazovor bo'lgan bo'lsa, Fransiya, o'zining madaniy merosi, fransuz jamiyat ideosferasining rivojlanishiga sezilarli ta'sir ko'rsatgan san'at, falsafa va gastronomiyasi bilan shuhrat qozongan. Germaniya, Italiya, Yaponiya, Xitoy va Hindistonning ham o'ziga xos ijtimoiy-madaniy xususiyatlari mavjud bo'lib, ular o'z mamlakatlaridagi ideosferani o'zgartiruvchi muhim atribut hisoblanib, butun jahon madaniyatiga ham sezilarli ta'sir o'tkazgan.

uchinchidan, siyosiy o'zgarishlar. Siyosiy jarayonlar, davlat strategiyasi va boshqaruvidagi o'zgarishlar jamiyat ideosferasining yangilanishiga ham sezilarli ta'sir qiladi. Dunyoning turli mamlakatlarida jamiyat ideosferasini o'zgartirishda siyosiy o'zgarishlar

muhim rol o'ynaydi. Bunga AQSh, Buyuk Britaniya, Fransiya, Germaniya, Rossiya, Eron, Yaponiya, Janubiy Afrika va boshqa davlatlarni misol keltirib o'tishimiz mumkin.

Buyuk Britaniya, Fransiya va Germaniyada mamlakat ichki va tashqi hayotida mafkura va qadriyatlarning tarqalishiga ta'sir ko'rsatadigan katta siyosiy o'zgarishlarni boshdan kechirgan bo'lsa, Rossiya, Eron, Yaponiya, shuningdek, Janubiy Afrika Respublikasida sodir bo'lgan siyosiy o'zgarishlar ushbu mintaqalar va global miqyosda jamiyatlarning ideosferasini o'zgarishida muhim rol o'ynagan.

to'rtinchidan, globallashuv. Turli madaniyat va xalqlar o'rtasidagi o'zaro ta'sir, ommaviy axborot vositalari va ijtimoiy harakatlarning tarqalishi g'oya va qadriyatlarni qayta ko'rib chiqishga olib kelishi mumkin. "O'z-o'zidan ravshanki, globallashuv va keskin raqobat zamoni, shiddat bilan o'zgarayotgan hayot bizning oldimizga kechiktirib bo'lmaydigan, o'ta muhim va dolzarb vazifalarni qo'ymoqda.

Mana shunday murakkab va qaltis vaziyatda barchamiz tinch va osoyishta hayotimizni asrash, milliy mustaqilligimizni mustahkamlash uchun yanada jiplashib, hushyor va ogoh bo'lib, dadil va qat'iy harakat qilishimiz zarur" [5].

AQSh, Avstraliya, Kanada, Yaponiya, Germaniya, Daniya, Shvetsiya, Buyuk Britaniya va Niderlandiya kabi boshqa davlatlar o'zlarining fuqarolik jamiyati, so'z erkinligi, tadbirkorlik va innovatsiyalar kabi mafkuraviy g'oyalari bilan jahondagi globallashuv jarayonidagi ideosferaning yangilanishiga o'z hissalarini qo'shdilar va rivojlantirdilar. Ushbu mamlakatlardagi ijtimoiy, siyosiy va texnologik yutuqlarni rivojlantirish orqali jamiyat mafkurasini o'zgartirishga o'ziga xos hissa qo'shganlar. Shuni ta'kidlash kerakki, jamiyat ideosferasini o'zgartirish murakkab va dinamik jarayon bo'lib, muayyan mamlakatlarning ta'siri ko'plab omillarga va ularning tarixiy rivojlanishi kontekstiga bog'liq bo'lmoqda.

beshinchidan, iqtisodiy o'zgarishlar. Iqtisodiyot, aholi bandligi, daromad darajasi va resurslar taqsimotidagi o'zgarishlar ham jamiyat ideosferasi dinamikasiga ta'sir ko'rsatuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Iqtisodiy o'zgarishlar dunyoning turli mamlakatlarida jamiyat ideosferasini o'zgartirishda muhim rol o'ynaydi. Bunday davlatlar qatoriga Avstraliya, Buyuk Britaniya, Yaponiya, Kanada, Xitoy, Janubiy Koreya, AQSh, Germaniya, Braziliya va boshqalar kiradi.

AQSHda sanoatlashtirish, texnologik taraqqiyot va moliyaviy innovatsiyalar bilan bog'liq iqtisodiy o'zgarishlar jamiyat ideosferasini o'zgartirishda muhim rol o'ynagan. Shuningdek, Xitoyda ham iqtisodiy tiklanish va jadal rivojlanish qadriyatlar, turmush tarzi, ijtimoiy va siyosiy masalalarga o'zgarishlarga olib kelgan.

Germaniya, Yaponiya, Janubiy Koreya, Hindiston, Rossiya va Braziliya ham iqtisodiy o'zgarishlar yangi ijtimoiy-madaniy g'oyalar va mafkuralarni shakllantirgan, fuqarolarning ijtimoiy ongiga va qadriyat yo'nalishlariga ta'sir ko'rsatgan mamlakatlar qatoriga kiradi.

Bu omillar jamiyat ideosferasini shakllantiruvchi qadriyatlar, e'tiqodlar, axborot muhiti va sotsial-madaniy kontekst tizimini o'zgartirish uchun sharoit yaratishi mumkin.

Natijalar. Jamiyat ideosferasining yangilanishiga bo'lgan ehtiyoj quyidagi sabablar bilan aloqador:

birinchidan, ijtimoiy-madaniy evolyutsiya. Jamiyat ideosferasining yangilanishi jamiyatda qadriyat, mafkura va g'oyalar o'zgarishi bilan birga yangi ijtimoiy-madaniy sharoit va taraqqiyotga moslashish imkonini yaratadi. Bu jamiyat taraqqiyoti va dinamikasiga turtki beradi.

ikkinchidan, innovatsiya va taraqqiyot. Jamiyat ideosferasidagi yangilanish innovatsiya va taraqqiyotni qo'llab-quvvatlaydi, chunki yangi g'oyalar, qadriyatlar va mafkuralar yangi texnologiyalar, ta'lim, iqtisodiyot va hayotning turli sohalarini rivojlantirishni rag'batlantiradi.

uchinchidan, o'zgaruvchan dunyoga moslashish. Zamonaviy texnologiyalar, globallashuv jarayoni va boshqa omillar ta'siri ostida doimo o'zgarib borayotgan dunyo jamiyat ideosferasining yangilanishi yangi davrga moslashish va o'zgaruvchan sharoitlarga javob berishni taqozo etadi.

to'rtinchidan, ijtimoiy barqarorlik. Jamiyat ideosferasini yangilash yanada inklyuziv, adolatli va barqaror ijtimoiy muhitni yaratishga olib keladi, ziddiyatlarni kamaytirish va ijtimoiy farovonlikni yaxshilashga yordam beradi.

beshinchidan, plyuralizmni rag'batlantirish. Jamiyat ideosferasini yangilash fikrlar, madaniyat va qarashlar xilma-xilligini tan olish, ularni hurmat qilishga yordam beradi, bu esa o'z navbatida, yanada ochiq va bag'rikeng jamiyatni vujudga keltirishga xizmat qiladi.

Shunday qilib, jamiyatning yangilanishi va mafkuraviy evolyutsiyasi taraqqiyotga, innovatsion rivojlanish va ijtimoiy barqarorlikka yordam beradi, bu esa, jamiyatning o'zgaruvchan sharoit va ehtiyojlarga moslashishiga zamin yaratadi. Bu yangilanish tabiiy jarayon bo'lib, jamiyatda qadriyatlar, e'tiqod va g'oyalarni shakllantiruvchi va o'zgartiruvchi ko'plab dinamik omillarni o'zida aks ettiradi.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, ideosferasining yangilanishi jamiyatdagi qadriyat, g'oya va madaniy amaliyotning doimiy rivojlanishi va o'zgarishi zarurligi to'g'risidagi muhim masalalarni qamrab oladi. O'tmish qadriyatlarini saqlash, yangi g'oya va innovatsiyalarga ochiqlik o'rtasidagi muvozanatni talab qiladi. Bu sa'y-harakatlarning barchasi jamiyatning barcha a'zolari uchun farovonlikni ta'minlay oladigan yaxlit, barqaror va uyg'un mafkuraviy muhitni yaratishga qaratilgan. Jamiyat ideosferasini yangilash zamonaviy dunyo chaqiriqlariga samarali javob berishga qodir, adolatli, bag'rikeng va yangi renessansni bunyod etish yo'lidagi muhim qadamdir.

Адабиётлар/Литература/References:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi // <https://president.uz/oz/lists/view/5774>
2. Xalqimizning yuksak ishonchini oqlash, erishgan yutuqlarimizni yangi, yanada ulkan natijalar bilan mustahkamlash - bosh vazifamiz // <https://president.uz/oz/lists/view/6484>
3. O'zbekiston o'qituvchi va murabbiylariga // <https://president.uz/oz/lists/view/6702>
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligining o'ttiz ikki yilligiga bag'ishlangan tantanali marosimdagi nutqi // <https://president.uz/oz/lists/view/6637>
5. Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi asosida demokratik islohotlar yo'lini qat'iy davom ettiramiz // <https://president.uz/oz/lists/view/4743>

SCIENCEPROBLEMS.UZ

ИЖТИМОЙ-ГУМАНИТАР ФАНЛАРНИНГ ДОЛЗАРБ МУАММОЛАРИ

№ 2 (4) – 2024

АКТУАЛЬНЫЕ ПРОБЛЕМЫ СОЦИАЛЬНО- ГУМАНИТАРНЫХ НАУК

ACTUAL PROBLEMS OF HUMANITIES AND SOCIAL SCIENCES

Ижтимоий-гуманитар фанларнинг долзарб муаммолари электрон журнали 2020 йил 6 август куни 1368-сонли гувоҳнома билан давлат рўйхатига олинган.

Муассис: “SCIENCEPROBLEMS TEAM” масъулияти чекланган жамияти

Таҳририят манзили:

100070. Тошкент шаҳри, Яккасарой тумани, Кичик Бешёғоч кўчаси, 70/10-уй. Электрон манзил:

scienceproblems.uz@gmail.com

Боғланиш учун телефонлар:

(99) 602-09-84 (telegram).